



Virusologiya ITI klinik shifoxonasi

13.02.2026-yil

Toshkent shaxri.

Shifoxona umumklinik yig'ilish bayoni № 3.

Qatnashdilar: Bosh shifokor L.N.Tuychiev, bosh shifokor muovini M.I.Raxmanov, bosh hamshira S.Z.Gulyamova, bo'lim mudirlari, shifokorlar, katta hamshiralar, hamshiralar, xo'jalik bo'limi xodimlari, KDL laboratoriya xodimlari, Referens laboratoriya, TO'O'XVI laboratoriya, endoskopiya xodimlari va boshqa tibbiy xodimlar.

Taklif etilganlar: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi xuzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisi maslahatchisi D.M.Ilxomov, Din ishlari bo'yicha qo'mita xodimi Z.A.Mardonov.

Kun tartibi: "Diniy ekstremizm va terrorizmga karshi kurash" va "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 25-iyuldagi PF117-son Farmoni mazmun-moxiyatini va axamiyatini tushuntirish va ijro intizomi to'g'risida.

Ma'ruzachi: Bosh shifokor L.N.Tuychiev.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish, tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish, aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

Bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning tobora avjiga chiqishiga zamin yaratmoqda. Shunday sharoitda tinchlik, barqarorlikni saqlashda ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganidek "Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi".

Millatimiz va xalqimiz mentalitetini o'zida namoyon etuvchi buyuk ma'naviyatimizni asrash xalqimiz taqdiri va kelajagi, hayot-mamotimiz vazifasi ekanligini anglash o'ta muhim vazifadir. Globallashuv davrida dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida keskin g'oyaviy kurashlarning avj olishi, turli mafkuralar to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlari bilan "chiroyli" niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish tobora kuchayib bormoqda. Dunyo xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy rahna solishga intilayotgan ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, giyohvandlik kabi tahdidlarning mavjudligi jiddiy fikrlashni talab etmoqda. Bu borada, dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar kuchayib borayotgan xavf – xatarlar, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama – qarshiliklar, terrorizm, radikalizmning tobora avj olishi tinchlik va barqarorlikka jiddiy tahdid solayotganligi tobora oydinlashmoqda.

Bugungi kunda radikallashuv jarayonlariga qarshi kurashning eng samarali yo'li – bu "jaholatga qarshi ma'rifat" asosida kurash uslubidir. Bunday kurash uslubi bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Xususan, Birlashgan Arab Amirligi, Singapur, Saudiya Arabistoni Podshohligi, Misr Arab Respublikasi kabi musulmon mamlakatlarida individual suhbat va turli ma'rifiy usullar yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni to'g'ri yo'lga qaytarishda o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Radikallashuvdan qaytarishda shaxsning noto'g'ri qarashlarini to'g'rlash ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'rifiy va oqilona usuli ekanligi e'tirof etilmoqda.

"Jaholatga qarshi ma'rifat" asosida ishlarni tashkil qilish jamiyatda o'zaro bir-birini tushunishni qo'llab-quvvatlaydi hamda tinchlik-barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ma'ruzachi: Terrorizmga qarshi kurashish bo'limi xodimi Z.A.Mardonov.

Bugungi kunda bizning mintaqamiz, shu hududda joylashgan mamlakatlarni, demokratik, huquqiy, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinayotgan turli xil ekstremistik kuchlar va markazlarning bu yerdagi xavfsizlikka rahna solish uchun ko'z tikkan joyi bo'lib qolmoqda. Bu yovuz kuchlar diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikni mintaqamizga yoyishga urinayotgani shundan dalolat beradi.

Ma'lumki, din hamisha insonlarni yaxshilikka, ezgu maqsadlarga chorlagan. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, islom dini bu ota – bobolarimiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifatdir. Shu bois keyingi davrda musulmonlarning e'tiqodi va diniy hissiyotlaridan ustakorlik bilan foydalanib, diniy ekstremistlar va terrorchilar tomonidan islom bayrog'i ostida amalga oshirilayotgan jinoyatlar ularning haqiqiy qiyofasini namoyon etmoqda. Ekstremistlar va terroristlarning g'ayri insoniy va g'ayri diniy harakatlari bizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga, haqiqiy diniy qadriyatlarni ularning soxta va o'ta

g'arazli talqinlaridan keskin farqlashga yordam beradigan bilimlarni egallashga undaydi. Shuningdek, terrorizmning bugungi kunda o'ta xavfli siyosiy hodisaga aylanib borayotganligi bir tomondan, ikkinchi tomondan esa uning diniy ekstremizm bilan chirmashib ketish jarayonining kuchayishi, unga qarshi kurashning yagona, yangi tizimini shakllantirishni taqazo qilmoqda.

Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmni bartaraf qilish amaliyotida "O'zbekiston omili"ning o'rni, jumladan Yurtboshimizning xalqaro miqyosda o'tkazilgan anjumanlarda, MDH davlatlari boshliq-larining oliy darajadagi sammitlarida, Markaziy Osiyo davlatlarining Dushanbe va Bishkek uchrashuvlaridagi tashabbuskorligi omil sifatida muhim ahamiyatni kasb etayotganligi, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2000-yil 15-dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" Qonun qabul qilinganligining ahamiyati tahlil qilingan.

Diniy ekstremizm va terorizmga qarshi kurashning samaradorligini oshirishda madaniy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni, fuqarolarda, jumladan yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning yo'nalishlari va usullari va vositalarining amaliy ahamiyati to'g'risida fikrlar berilgan.

O'ylaymizki, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, xavfsizlikni ta'minlashda va mutaassib g'oyalarga qarshi fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda din sohasidagi chuqur ilmiy-likka, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat siyosatining keng qamrovli roli yanada kuchayib boradi. Shubhasiz bu jarayon xalqimizning kelajakka bo'lgan ishonchini, e'tiqodini, o'zi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yo'lida tashlayotgan har bir qadamini mustahkamlashga samarali ta'sir etadi.

Markaziy Osiyodagi xalqlarning mustaqilligi, erkinligi urf-odatlar va boyliklariga tahdid soladigan va o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan qaytmaydigan g'ayri insoniy kuchlar mavjud ekan, bugungi kunda voyaga yetayotgan farzandlarimiz-yoshlarni kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

"Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur".

Terrorizm tushunchasi: maqsadi, uslublari va unga qarshi kurashning zarurligi, bugungi kunda yuzaga kelayotgan tahlikali vaziyatni, ayniqsa diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga solayotgan tahdidini to'g'ri baholanmaslik va ularga qarshi kurashni kuchaytirish zarurligini to'g'ri va o'z vaqtida anglab etmaslik katta zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash masalasi butun insoniyatning oldida turgan strategik vazifalardan biriga aylandi. Terroristik harakatga qarshi samarali kurash olib borishdan oldin bu reaksiya xalqaro kuchning o'ziga xos jihatlarini yaxshi bilib olishimiz o'ta muhimdir.

Terrorizm tushunchasi. Terrorizm lotinchada "teror" so'zidan olingan bo'lib beqarorlikni keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlariga vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usulidir. Terrorchilik harakatlari davrlar o'tishi bilan, bugungi kunga kelib, butun bashariyatning muammosiga aylandi. Terrorchilik harakatlari ko'p yillar davomida turli joylarda aholining ongini zaharlash orqali hokimiyatni qo'lga kiritishga urinib kelgan.

Terrorizm-bu siyosiy kurash metodlaridan biri bo'lib, cheklanmagan, harbiy harakatlar bilan aloqador bo'lmagan o'z maqsadlariga jismoniy zo'ravonlik orqali erishishga qaratilgan harakatdir.

Terrorizmning tarixiy va hozirgi zamon ko'rinishlari o'rtasida katta tafovvd mavjud. Terrorizm birinchi navbatda siyosiy kurashning "terrorchilik" terakt shaklini qo'llashga harakat qiladi.

Terrorchilik harakatiga xos xususiyatlar:

- Terrorchilarning "Zo'rlik" davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishini osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi" degan g'oyaga asoslanib harakat qilishi;
- Hech qanday urush bo'lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo'rlik yo'li bilan amalga oshirishga harakat qilishi;
- Uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki muayyan shakldagi xuruj natijasida odamlar orasida xavotirli shov-shuvga erishishi.
- OAVlarining terrorchilarni o'z maqsadlariga erishishlarida asosiy qurolga aylanib borayotganligi.
- Terrorchilik harakat jarayonlarining OAV orqali keng yoritilishi va omma ongida xavotirli aks-sado berishga intilishining kuchaytirilishi.
- Jamiyatda ovoza bo'lishga intilish, odamlarda qo'rquv hissini uyg'otish bilan terroristlar o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lishadi.
- Odamlarni garovga olishning ham mohiyatdan o'zgarib borayotganligi. Avvallari garovga olishdan maqsad pul undirish bo'lgan bo'lsa, endilikda mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarish orqali siyosiy maqsadlarga erishishni ko'zlashi.

Ma'lumki, har qanday siyosiy tashkilot muayyan maqsadni strategik vazifa sifatida belgilab oladi va amaliyotda turli taktikalarni qo'llab maqsad sari harakat qiladi. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmoq uchun eng avvalo ularning maqsadlari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish o'rinlidir. Agar o'tmishda terakt (terrorchilik) ayrim martabali yo'l boshchilarni, davlat rahbarlarini yo'qotishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi davrdagi teraktning ob'ekti birmuncha kengayib borayotganligi quyidagi holatlardan bilib olish mumkin:

- hozirgi zamon taraqqiyoti uchun, insoniyat uchun xavfli bo'lgan harakatlarning eng dahshatlisi bu halqaro terrorizmning amaldagi harakatidir.

Ma'ruza yakunida xodimlar tomonidan berilgan savollarga ma'sullar tomonidan tegishli javoblar berildi.

Bayonnomani rasmiylashtiruvchi



D.R.Abduraximova